

SIRDARYO VILOYATIDA ICHKI TURIZM HOLATI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Xolmurodova Shahnoza G'anisher qizi

Alfraganus universiteti magistranti

Uzshano@gmail.com

Аннотация

Ushbu tadqiqotda mamalakatimiz, xususan Sirdaryo viloyatida ichki turizm salohiyatiga tavsifi berilgan bo'lib, viloyatning ichki turizm obyektlari va yillar davomida tashrif buyurgan turistlar soni tahlil qilingan. Shu bilan birgalikda, ichki turizm salohiyatini bu turdagi turizm xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqotni amalga oshirish uchun Sirdaryo viloyatining hokimligi turizm va madaniy me'ros bo'limidan olingan ma'lumotlar asosida amalga oshirildi. Hokimlikdan olingan ma'lumotlar asosida jadval tuzildi va kelgusi yillarda kutilayotgan turistlar soni prognoz qilindi. Yig'ilgan ma'lumotlar asosida ichki turizmning mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi va mamlakatimiz turizm salohiyatini rivojlantirish uchun eng muhim omillardan biri ekanligiga xulosa qilindi.

Kalit so'zlar : ichki turizm, turizm talabi, turizm holati, mahalliy turist, xorijiy turist.

I KIRISH. Turizm eng muhim iqtisodiy faoliyat turlaridan biri bo'lib, rivojlanish, farovonlik va farovonlik kaliti sifatida qaraladi. Bugungi kunda turizm boshqa sohalar singari keng suratlarda o'sib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turizm "ish o'rinlari va korxonalar yaratish, eksport daromadlari va infratuzilmani rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili" hisoblanadi. Turizm so'nggi olti yarim o'n yillikda deyarli uzluksiz o'sishni ko'rsatdi va bu sektorning kuchi va mustahkamligini namoyish etdi. Turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. 2017-yilda 1,6 trillion AQSH dollarini tashkil etgan turizm jahon eksportining qariyb 7 foizini tashkil etuvchi yoqilg'i va kimyoviy mahsulotlardan keyin 3-o'rinni egalladi. Turizm ham asosiy ish o'rinlari yaratuvchilaridan biri bo'lib, 10 ta ish o'rni ulushiga to'g'ri keladi va jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 10 foizini tashkil qiladi¹ (UNWTO, 2017). Bundan tashqari, turizm dunyodagi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun valyuta ishlab chiqaruvchi asosiy sektor hisoblanadi. Eng muhimi, turizm madaniyatni saqlaydi, atrof-muhitni himoya qiladi, tinchlik va hamjihatlikni ta'minlaydi, iqtisodiy o'sishni va

¹ UNWTO, Tourism Highlights 2017 Edition

umumiy rivojlanishni kuchaytiradi, bu esa sektorni barqaror rivojlanish uchun muhim qiladi.

UNWTO (1995)ning ma'lumotlariga ko'ra, turizmni xalqaro va ichki turizmga bo'lish mumkin. Xalqaro turizm rezident turistlar va norezident turistlarning o'z mamlakatidan tashqaridagi faoliyatini o'z ichiga oladi, ichki turizm esa rezident turistlarning o'z mamlakati doirasidagi faoliyatini o'z ichiga oladi. Pierretning fikricha, ichki turizm, ehtimol, sivilizatsiyaning oldingi davrida qo'llanilgan turizmning birinchi shaklidir. Bugungi kunda u butun dunyo bo'ylab turizmning muhim shakli sifatida davom etmoqda, bu taxminan 5-6 milliard sayyohlik kelishini (UNWTO 2016) tashkil etadi, bu umumiy turistik kelganlarning 74% - 86% dan ortig'ini tashkil etadi. Bu umumiy tunashlarning taxminan 73% ni, mehmonxonalarda tunashning 69% ni va mehmonxona bo'lmagan turar joylarda tunashning 75% ni tashkil qiladi.

II ADABIYOTLAR TAHLILI. Bugungi kunda butun dunyoda ichki turizmni rivojlantirish mavzusi tadqiqotchilar orasida dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda.

Xalqaro turizm bo'yicha statistik ma'lumotlar izchil, keng qamrovli va dolzarbdir. Biroq, butun dunyo bo'ylab ichki turizm bo'yicha izchil ma'lumotlar unchalik oson emas. Sababi davlatlar o'rtasida statistika yuritishda anchagina farqlar bor. Xalqaro turizm harakatlarini o'lchash qiyin bo'lsa, ichki turistik harakatlar kuzatish yanada qiyinroq jarayondir.² Mamlakatimizda ushbu soha olimlari ham ichki turizmni rivojlantirish borasida turli izlanishlar olib borishgan. Tadqiqotchilarning izlanishlari natijasi shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalish bo'yicha turli davlatlarning geografik joylashuvi, muhiti, ijtimoiy kelib chiqishi, davlat siyosati va aholining daromadlari ta'sirida rivojlanish dasturlari ishlab chiqilgan hamda ular turli davlatlarda turlicha strategiyalar yordamida rivojlantirish ko'zda tutilgan. Tadqiqotimizning ushbu qismida, ushbu soha olimlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar muhokama qilinadi.

Jahon tadqiqotchisi Kovachining fikricha, turizm deganda odamlarning shaxsiy, tijorat yoki kasbiy maqsadlarda bir yildan ko'p bo'lmagan muddatga harakatlanishi tushuniladi. Ichki turizm - turistik infratuzilma sifatida tavsiflangan turizm turlaridan biri bo'lib, u bir millat fuqarolarini o'z mamlakati ichida sayohat qilishni o'z ichiga oladi.³ U ko'plab mamlakatlarda turizm faoliyatining asosiy hissasini ifodalaydi.

Ichki turizm iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan bir qancha afzalliklarga ega, mahalliy obodonlashtirishga ko'proq hissa qo'shish, uning tashqi qochqinlarni kamaytirish potentsialining aksi sifatida, shu jumladan qarindoshlar, do'stlar va boshqa jamoat yig'ilishlariga tashrif buyurish va sayyohlarning chet ellik sayyohlar tez-tez tashrif buyurmaydigan joylarga tashrif buyurishidir (Arbulu va boshqalar).

² Eke Eijgelaar, Paul Peeters, and Pieter Piket, page 2, Domestic and International Tourism in a Globalized World

³ Choo, 2014, Huybers, 2003, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Statistika bo'limi, Jahon Turizm Tashkiloti, 2010

Ichki turizm Braziliyada sayyohlik xarajatlarining 94%, Hindiston, Germaniya, Xitoy, Yaponiya, Meksika, Buyuk Britaniya va AQShda 80% dan ortig‘i, Fransiya va Italiyada 70% dan ortig‘ini tashkil qiladi (UNWTO, 2020b.) Mahalliy turizm bo‘yicha o‘tkazilgan bir qancha so‘nggi tadqiqotlardan farqli o‘laroq, uning mintaqaviy iqtisodiy o‘shishga qo‘shgan hissasini tahlil qiladi⁴. (Kortes-Jiménez, 2008 ; Goh va boshq., 2015 ; Haddat va boshq., 2013).

COVID-19 tomonidan xalqaro harakatchanlikka qo‘yilgan cheklovlar davom etayotganini hisobga olib, UNWTO ichki turizm va uning imkoniyatlari to‘g‘risida hisobot e‘lon qildi. Hisobotda aytilishicha, ichki turizm bozori sayyohlar soni bo‘yicha xalqaro bozordan olti barobar ko‘p. Endi u pandemiya oqibatlarini boshqarishda muhimroq rol o‘ynaydi. (Jahon turizm tashkiloti, 2020)⁵.

Iqtisodiy rivojlanishdagi roli bo‘yicha ichki turizm xalqaro turizmga nisbatan bir qancha afzalliklarga ega. Masalan, ichki turizm tashqi qochqinlarni kamaytirish qobiliyati tufayli mahalliy rivojlanishga yuqori hissa qo‘shishi mumkin⁶ (Sheldon & Dwyer, 2010) Do‘stlar va qarindoshlarni ziyorat qilish va boshqa ijtimoiy tadbirlarni o‘z ichiga olgan ichki sayohat sayyohlarni xalqaro sayyohlar tashrif buyurmaydigan joylarga tarqatadi va mintaqaviy rivojlanishning yanada muvozanatli bo‘lishiga yordam beradi ⁷ (Goh va boshq., 2015; Haddad va boshq., 2013 ; Li va boshqalar, 2016). Seckelmann , 2002).

O‘zbekiston turizmni rivojlantirish uchun judayam ko‘p imkoniyatlarga ega mamlakat hisoblanadi. Respublika iqtisodiyotida turizmni strategik darajaga ko‘tarish, ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va hajmini keskin ko‘paytirish, fuqarolarni mamlakatimizning turizm salohiyati bilan tanishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, taqdim etilayotgan turizm xizmatlari sifatini yaxshilash va jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish, turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratish, zamonaviy xizmatlar infratuzilmasini jadal rivojlantirish, shuningdek, aholini ish bilan ta‘minlash va ularning daromad manbaini kengaytirish maqsadida 2022 yil 30 aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-232 Qarori tasdiqlandi⁸.

Ushbu qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi orqali mamlakatimizning ichki hududlariga sayohat

⁴ Kortes-Ximenes Turizmning qaysi turi mintaqaviy iqtisodiy o‘shishda muhim ahamiyatga ega? Ispaniya va Italiya holatlari Turizm tadqiqotlari xalqaro jurnali , 10 (2008) , 127-139 - betlar

⁵ UNWTO brifing eslatmasi – Turizm va COVID-19, 3-son. Ichki turizmni tushunish va uning imkoniyatlaridan foydalanish
UNWTO, Madrid (2020)

⁶ P. Sheldon, L. Dwyer Jahon moliyaviy inqirozi va turizm: akademiya istiqbollari Journal of Travel Research, 49 (1) (2010), 3-4 - betlar

⁷ (Goh va boshq., 2015 ; Haddad va boshq., 2013 ; Li va boshqalar, 2016). Seckelmann , 2002).

⁸ <https://lex.uz/uz/docs/-5991928>

qilishlari orqali, xarajatlarining bir qismini qaytarish (“Cashback”) tartibi joriy etildi. Bu esa o‘z navbatida ichki turizm talabini shakllantirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Keyingi yillarda turizm sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ham asosan ma‘muriy birliklar doirasida amalga oshirilmoqda. Jumladan, M.T.Alimovning “Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida)”(2017), B.X.Kamolovning “Namangan viloyatida ekoturizmning hududiylik, davriylik va komplekslik xususiyatlari” (2018), A.K.Alimovning “Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va istiqbollari” (2018), M.M.Mahmudovning “Andijon viloyatida turizmni rivojlantirishning iqtisodiy geografik xususiyatlari” (2020) mavzusidagi tadqiqotlar shular jumlasidandir.

Turizm va turist tushunchalari qanday ilmiy ma‘no anglatadi? O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyulda Turizm to‘g‘risidagi qonunga muvofiq “turizm – jismoniy shaxsning vaqtincha bo‘lish mamlakati (joyi)dagi manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo‘nab ketishi (sayohat qilishi)”. “Turist – vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyi)dagi manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda vaqtincha bo‘lish mamlakatiga (joyi)ga yigirma to‘rt soatdan ketma-ket o‘n ikki oygacha bo‘lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo‘lish mamlakatida (joyi)da kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs”. Qonunda aks ettirilgan mazkur tushunchalar xalqaro talablar va ilmiy-nazariy nuqtai nazardan mulohazalidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Vazirlar Mahkamasining mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlab kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida, ushbu masala xususida alohida to‘xtalib o‘tgan. Unda mamlakatimizda turizm industriyasini taraqqiy ettirish borasida so‘z, “Oxirgi yillarda turizmdek muhim soha kompleks rahbarining zarur darajadagi e‘tiboridan chetda qolib ketdi. Bu xatoni so‘zsiz va eng muhimi, natijali ravishda to‘g‘rilash kerak. Biz hozir faqat turizmni rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan tuzilmaga doir masalalarni tasdiqladik. Bu choralar turizmning O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojiga qo‘shadigan hissasini oshirish, tarixiy va madaniy qadriyatlarimizni targ‘ib qilish, shuningdek, valyuta zaxiralarini to‘ldirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar bilan kuchaytirilishi zarur⁹” degan edi.

⁹ “Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak». O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. 2017-yil 14-yanvar.

Mamlakatimizda turizm sohasiga oid ilmiy adabiyotlarda ham turizm industriyasi tushunchasi har tomonlama tadqiq etilib, ushbu soha mutaxassislari I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, N.E.Ibodullayev, R.S.Amriddinova “turizm industriyasi – bu mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish obyektlari, ko‘ngil ochish obyektlari va vositalari, bilim orttirish, davolash, sog‘lomlashtirish, sportga doir, diniy-marosim, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatorlari va turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek, turistik-ekskursiya va gid-tarjimonlik xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilotlar majmuidir”,¹⁰– deb ta’rif berishgan.

Tadqiqotchilar A.Nigmatov, O.Tobirovlar “Turizm va uni Sirdaryo viloyatida rivojlantirishning geografik jihatlarini” nomli monografiyasida turizm, turizm industriyasi va turizm bozori kabi termin va atamlarning izohi, ularni ma’muriy birliklar doirasida rivojlantirish zarurati yoritilgan. Unda Sirdaryo viloyati o‘ziga xos turizm tadqiqot obyekti sifatida ko‘rilgan hamda uning sayyohlik imkoniyatlari va rivojlantirishning kelajak istiqbollari ochib berilgan. Guliston davlat universiteti misolida turistik ta’limga tegishli o‘quv jarayonining holati hamda uni takomillashtirish yo‘llari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Monografiya geografiya va geografiya ta’limi, turizm va turizm ta’limi kabi yo‘nalishlar hamda mutaxassisliklarda faoliyat yuritayotgan tadqiqotchi, talaba, magistr, doktorant va pedagoglar uchun mo‘ljallangan¹¹.

III METODOLOGIYA. Biz yuqoridagi bobda ichki turizmni rivojlantirish bo‘yicha dunyo olimlarining fikri bilan tanishib chiqdik . Adabiyotlar tahlilidan shuni ko‘rishimiz mumkinki, har bir davlat o‘z holatidan kelib chiqqan holda ichki turizmga tarif bergan. Ushbu bobda biz sirdaryo viloyatining ichki turizm statistikasini ko‘rib chiqamiz va ichki turizmni rivojlantirish uchun o‘z takliflarimizni beramiz. Ya’ni biz birinchi navbatda Sirdaryo viloyatida turistik obyektlar ro‘yhatini shakllantirdik. Har bir obyekt faoliyat turlariga ajratib chiqdik yani mehmonxonalar soni , mehmon uylari soni, hostellar soni, turistik korxonalar soni, turizm xizmatlari eksport hajmi ,viloyatga tashrif buyurgan turistlar va joylashtirish vositalari soni berilgan. Shuningdek, ushbu ma’lumotlarda 2026 - yilgacha kutilayotgan prognoz keltirilgan va u mahalliy hokimiyat tomonidan olingan ma’lumotlar asosida shakllantirildi. Yig‘ilgan ushbu ma’lumotlar asosida tadqiqotimizni tahlil usulida olib bordik.

IV. NATIJALAR. Mamlakatimizning har bir hududi o‘ziga xos turistik jozibaga ega. Qadimdan tarixiy yodgorliklarni ko‘rish, boy merosimizni o‘rganish har bir kishida milliy o‘zlikni anglash, an’ana va qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantiribgina qolmay, o‘z vatani tarixini bilishga, ajdodlar merosini o‘rganish

¹⁰ Turizm asoslari. Tuxliyev I.S. va boshq. O‘quv qo‘llanma. 3-nashri. – Samarqand: “SamISI”, 2010. – 284 b.

¹¹ A.Nigmatov, O.Tobirovlar “Turizm va uni Sirdaryo viloyatida rivojlantirishning geografik jihatlarini

orqali shu yurt farzandi ekanligidan faxr, g'urur tuyg'ularini rivojlantiradi. Tadqiqotimizning ushbu qismida Sirdaryo viloyati ichki turizmi holati va statistikasi bilan tanishamiz.

2023-2026 yillar oralig'ida Sirdaryo viloyatida turizm sohasida asosiy korsatkichlari to'g'risida ma'lumot.

1-jadval

T/r	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	shundan	shundan	shundan
			**2024 yil uchun prognoz	**2025 yil uchun prognoz	**2026 yil uchun prognoz
1	O'zbekistonga tashrif buyuradigan horijiy turistlar soni	Ming nafar	20	22	24
2	Turizm xizmatlari eksporti hajmi	Ming AQSH dollar	5,0	5,5	6,0
3	Ichki turistlar soni	Ming dona	132	135	138
4	Joylashtirish vositalari soni (oilaviy mehmon uyi va xosteldan tashqari)	soni	2	2	3
		Xona	20	25	20
		o'rin	30	32	30
5	Mehmonxona	Soni	2	2	3
		Xona	20	25	20
		o'rin	30	25	20
6	Xostellar soni	Soni	2	2	3
		Xona	25	20	30
		o'rin	30	20	20
7	Oilaviy mehmon uylari soni	Soni	3	3	3
		Xona	15	15	15
		o'rin	25	25	25
8	Turistik korxonalar soni		1	1	1

Ushbu jadvalda Sirdaryo viloyati mehmonxonalar, xostellar, oilaviy mehmon uylari soni, turistik korxonalar soni, joylashtirish vositalari soni (oilaviy mehmon uyi va xosteldan tashqari), O'zbekistonga tashrif buyuradigan horijiy turistlar soni va 2026 yilgacha bolgan prognoz keltirilgan.

Hozirgi kunda, Sirdaryo viloyati hududida 78 ta turistik obyekt ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 18 tasi arxeologik, 15 tasi arxitektura va 41 tasi monumental san'at yodgorliklari hamda 4 tasi diqqatga sazovor joylardir. Yuqoridagi turistik obyektlarni Sirdaryo viloyati ma'muriy-hududiy birliklari bo'yicha taxlil qilganda, quyidagilarni ko'rish mumkin.

Sirdaryo viloyatining ma'muriy-hududiy birliklari bo'yicha obyektlarning turizm turlari bo'yicha taqsimlanishi¹²

3-jadval

T/r	Mamuriy-hududiy birliklar	Turizm turlari				Jami
		arxeologik	arxitektura	monumental	diqqatga sazovor joylar	
1.	Sirdaryo	4	1	4	-	9
2.	Sayxunobod	6	-	-	-	6
3.	Guliston	1	3	1	-	5
4.	Oq oltin	1	-	4	-	5
5.	Sardoba	1	1	1	-	3
6.	Xavos	3	2	-	4	9
7.	Guliston shahri	1	8	18	-	27
8.	Boyovut	1	-	3	-	4
9.	Mirzobod	-	-	3	-	3
10.	Shirin sh.	-	-	2	-	2
11.	Yangiyer sh.	-	-	5	-	5
Jami		18	15	41	4	78

Viloyat turizm obyektlarining salmog'i bo'yicha Guliston shahri alohida o'rin tutadi. Shaharning viloyat turizm obyektlaridagi ulushi 34,6 foizni tashkil etadi. Undan keyingi o'rinda 11,5 foiz bilan Sirdaryo va Xovos tumanlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Lekin, qolgan tuman va shaharlarni hech birining salmog'i 10 foizga yetmaydi yoki bo'lmasa eng ko'pi bilan 6 ta turistik obyekt joylashganini ko'rish mumkin. Viloyatda mehmonxona va shunga o'xshash turistlarni joylashtirish vositalarining umumiy soni 18 ta bo'lib, ulardagi joylar soni esa 1042 tani tashkil etadi. Bundan tashqari, viloyatda 1 ta muzey, 1 ta teatr, 4 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud. Muzeyda turli eksponatlar fondi 1296 ta bo'lib, shulardan: rassomlik 174 ta, numizmatika 199 ta, maishiy va etnografiya buyumlari 127 ta, amaliy san'at buyumlari 291 ta, suratlar 96 ta, arxeologiya buyumlari 358 ta, qadimgi rasmiy hujjatlar 7 tava boshqalar 44 tani tashkil etadi. Madaniyat va istirohat bog'larining umumiy maydoni 4314,6 gadan iborat. Ularda 30 tadan ortiq attraksionlar foydalanishga topshirilgan.¹³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasining 2018-yil 13-sentabr kuni Sirdaryo viloyatida majlisi bo'lib o'tdi. Unda Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan Sirdaryo viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha 2019-yilning birinchi yarim yilida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobot berildi. Sirdaryo viloyati mamlakatimizning markaziy qismida, mintaqamizdagi eng katta daryolardan birining bo'yida joylashgan bo'lib, hududda sayyohlikning ayrim turlari, ayniqsa agro-

¹² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi «Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida» 846-sonli qaroriga 1- ilova.

¹³ Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumoti.

ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari katta. Shuni hisobga olgan holda, Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan viloyatning mazkur yo‘nalishdagi salohiyatini oshirish yo‘lida izchil ishlar olib borilmoqda. Jumladan, 2019-yil birinchi yarim yilida 3 ta oilaviy mehmonxona, 5 ta restoran va kafe hamda bir necha turoperatorlik subyektlari tashkil etilib, turistik toifadagi mikroavtobus hamda elektromobillar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Guliston temir yo‘l vokzali hamda “Shohruh” mehmonxonasi hududida turizm axborot markazlarining faoliyati yo‘lga qo‘yilib, shaharda mehmonlar uchun Wi-Fi zonalarni tashkil etilgani katta qulayliklar yaratmoqda. Viloyatning turistik salohiyatini ro‘yobga chiqarishda mehmon va sayyohlarni jalb qiluvchi jihatlar, xususan “Sharq ekzotikasi”ga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, viloyat hududidan o‘tuvchi avtomagistral yo‘l bo‘ylarida tuyachilikni rivojlantirish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkor va fermerlar tomonidan o‘tovlar qurilib, tuya suti va esdalik sovg‘alari sotuvi yo‘lga qo‘yilgan. Guliston shahrining turistik kartalari, turistik buklet, flayer va 500 dan ortiq risola ishlab chiqilib, tarqatildi. Turistik salohiyatni targ‘ib qiluvchi 22 ta targ‘ibot-reklama bannerlari o‘rnatildi. Bu kabi sa‘y-harakatlar natijasida 2019-yil birinchi yarim yilida viloyatga 19650 dan ziyod sayyohlar tashrif buyurgan. Ulardan, 1720 nafari xorijiy 44 mamlakat vakillaridir. 2018-yilning birinchi yarim yilligiga nisbatan bu ko‘rsatkich sezilarli darajada oshgan.

Xulosa va takliflar. Ichki turizm uzoq vaqtdan beri turizm industriyasini rivojlantirishda katta rol o‘ynab kelayotganligi sababli ichki turizmni rivojlantirish iqtisodiy rivojlanishning yo‘nalishiga aylandi. Oldingi o‘tkazilgan tadqiqotlar orasida bu borada izlanish qilinmaganligi sababi, ehtimol, Sirdaryo viloyati aholisining ichki turizmga bo‘lgan qiziqishining pastligi va ularning bu borada xabardor emasligi bo‘lishi mumkin.

Ko‘pchilik Sirdaryo viloyati hududida turizmni rivojlantirish masalasini juda og‘ir yo‘nalish deb o‘ylaydi. To‘g‘ri, Sirdaryoda Samarqand, Buxoro yoki Xiva shaharlaridagidek tarixiy obidalar ko‘p emas. Ammo bu viloyatda turizmni, ayniqsa, eko va agro turizmni rivojlantirish uchun juda katta imkoniyatlar mavjud. Hozirgi kunda bu borada viloyatda keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

O‘tgan yilda viloyatda turizmni rivojlantirish maqsadida 18 ta yangi loyiha amalga oshirilib, natijada 299 ta yangi ish o‘rni yaratildi. Misol uchun A-373 xalqaro trassasi bo‘yida tuyachilik markazi tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda ko‘plab mahalliy va xalqaro turistlar inson organizmi uchun shifobaxsh xususiyatga ega bo‘lgan tuya sutini iste‘mol qilib, bir muddat ushbu maskanda dam olish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Sirdaryo tumani hududida – daryo bo‘yida joylashgan ekoturizm yo‘nalishidagi dam olish maskanida yaratilgan sharoit sayyohlar tomonidan e‘tirof etilmoqda.

Yana xuddi shu tumandagi, Toshkent – Termiz yo‘li bo‘yida barpo etilgan “Chehra” dam olish majmuasi oilaviy dam oluvchilar uchun ayni muddao.

– Turizm sohasi viloyatimizda izchillik bilan rivojlanmoqda, – deydi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i B. Tagaev. – 2018 yilda viloyatda birgina turoperator faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, joriy yilning 1 yanvaridan beri, 7 nafar turoperator faoliyat ko‘rsatayotir. Bugun viloyatimizda jahon talablariga to‘la javob bera oladigan 3 yulduzli mehmonxonalarimiz bor. Viloyatda, jami 340 o‘rinli 11 ta mehmonxona 30 mehmonga mo‘ljallangan 4 ta oilaviy mehmon-uyi, jami 124 kishiga mo‘ljallangan 2 ta sanatoriya faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Keyingi 3 yil ichida viloyatda ayniqsa, tibbiyot turizmi yaxshi rivojlanib bormoqda. Birgina o‘tgan 2019 yilning o‘zida viloyat shifoxonalarida 4 ming 500 nafar xorijiy sayyohlar tashrif buyurib, o‘z dardlariga shifo topdilar. Albatta, viloyatda tibbiyot turizmini rivojlantirishga e‘tibor bo‘lmaganida, xususiy tibbiy xizmat sifatini oshirish masalasi bunday natijalarni qo‘lga kiritmagan bo‘lar edi.


Viloyatda turizmni rivojlantirish borasida mas‘ul shaxslar tomonidan aniq yo‘l xaritasi tasdiqlangan. Xaritaga binoan yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish, markaziy avtomobil yo‘l yoqasida mahalliy va xorijiy turistlar uchun dam olish maskanlari barpo etish, ekoturizm ob‘ektlarini ishga turishish rejalashtirilgan.

Sirdaryoning o‘z tarixi, buguni va ertasi bor, – deydi viloyat hokimining o‘rinbosari Otabek Nosirov. – Bugungi kunda viloyatimizda moddiy-madaniy meros ob‘ektlari 87 tani tashkil qilib, shundan 18 ta arxeologiya ob‘ektlari hisoblanadi. 15 ta arxitektura ob‘ekti, 41 ta monumental san‘at yodgorligi, 3 ta muzey mavjud. Joriy yilda turizm salohiyatini yanada oshirish maqsadida 26 ta loyiha amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan. To‘g‘ri hali bu yo‘nalishda ko‘p ish qilishimiz kerak. Muhimi, bugun bu boradagi loyihalar, izlanishlar izchil hayotga tatbiq etilayotir.

Tadqiqotimizni amalga oshirish uchun metodologiya qismida biz ma‘lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash uchun davlat idoralari xususan, Sirdaryo viloyati Hokimiyatiga murojaat qildik va ularning bizga taqdim etgan ma‘lumotlariga tayandik. Buning uchun avvalo biz Sirdaryo viloyatidagi turizm tashkilotlari ro‘yhatini tuzib chiqdik va uni yillar kesimida tashrif buyurgan turistlar sonini aniqladik. Shu bilan birga o‘zimiz uchun kerakli bo‘lgan ma‘lumotlar kategoriyasi ustida ishladik. Tadqiqotimizning adabiyotlar tahlili qismida butun jahon ichki tuzim bo‘yicha ma‘lumot va tadqiqotlar o‘rganildi va olimlar fiklari tahlil qilindi.

4-jadval

Sirdaryo viloyatida ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha model¹⁴



Sirdaryo viloyatining ichki turizmni keng targ'ib qilish uchun avvalo viloyatdagi ko'zga tashlangan turistik joylarni marketingini kuchaytirish lozim. Buning uchun avvalo aholining turmush tarzini o'rganilib, ichki turizmga bo'lgan salohiyatini oshirish lozim. Ya'ni bunda aholi bilan ishlab ularning turizmga bo'lgan qiziqishini oshirish lozim. Viloyatara qiziqarli festivallar uyushtirish, turli xil ko'rgazmalar tashkil etish, aholini ushbu jarayonga taklif etish va bu aholining ichki turizmga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Nigmatov, O.Tobirovlar "Turizm va uni Sirdaryo viloyatida rivojlantirishning geografik jihatlari
2. Bowen Kotler, Make , Marketing for Hospitality and Tourism Pearson Education Limited, USA (2014)
3. G.M. Dann. Anomie, ego-enhancement and tourism, Ann. Tourism Res., 4 (4) (1977), pp. 184-194
4. (Kovaçi et al., 2020; United Nations Statistics Division, World Tourism Organization (2010)

¹⁴ Ushbu jadval muallif tomonidan yaratilgan

5. Kortes-Ximenes Turizmning qaysi turi mintaqaviy iqtisodiy o'sishda muhim ahamiyatga ega? Ispaniya va Italiya holatlari Turizm tadqiqotlari xalqaro jurnali, 10 (2008) , 127-139 - betlar
6. J.L. Crompton. Motivations for pleasure vacation. Ann. Tourism Res., 6 (4) (1979), pp. 408-424
7. McKercher, B and Cros,H (2002) Cultural tourism: the partnership. between tourism and cultural heritage management. New York: Haworth HospitalityPress.
8. P. Sheldon, L. Dwyer Jahon moliyaviy inqirozi va turizm: akademiya istiqbollari Journal of Travel Research, 49 (1) (2010), 3-4 – betlar (Goh va boshq., 2015 ; Haddad va boshq., 2013 ; Li va boshqalar, 2016). Seckelmann , 2002).
9. P. Pearce, A.M. Morrison, J.L. Rutledge Tourism: Bridges across Continents McGraw-Hill, Sydney (1998) S. Malviya. Tourism: Tourism: Policies, Planning and Governance
10. S. Baloglu, M. Uysal. Market segments of push and pull motivations: a canonical correlation approach. Int. J. Contemp. Hospit. Manag., 8 (3) (1996), pp. 32-38
11. Tourism: Bridges across Continents. McGraw-Hill, Sydney (1998)
12. <https://lex.uz/uz/docs/-5991928> -O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi